

**Durdona ELIYEVA**

**ONAMGA O'XSHAYSAN  
VATAN**

**She'rilar**

Qarshi  
«Qashqadaryo ko'zgusi OAV»  
2015

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(50')7

E46

Eliyeva Durdona

«Onamga o'xshaysan vatan» [matn]: she'rlar/ D.Eliyeva.-Qarshi:  
«Qashqadaryo ko'zgusi OAV», 2015-yil-24 bet.

KBK:84(50')7

Durdona Eliyeva endigina she'riyat bo'stoniga qadam qo'ygan yoshlardan.  
Uning ushbu kitobidan joy olgan she'rлari sodda va ravon tilda yozilgan  
bo'lib, ularda vatan, ona-yurt, mahalla va oilaga bolalarga xos bo'lgan mehr-  
muhabbat mahorat bilan qalamga olingan.

Yosh ijodkor she'riyatga ishtiyoq bilan yondashib kelayapti. Bunga o'zingiz  
kitobni o'qib amin bo'lasiz.

ISBN 978-9943-4245-3-1

AJBURIY NUSXA

ISBN 978-9943-4245-3-1

©Eliyeva Durdona, 2015-yil.

© “Qashqadaryo ko'zgusi OAV” nashriyoti, 2015-yil.

20/6/11

Alisher Navoiy  
nomidagi  
O'zbekiston MK

A#30

**So'z boshi**

Eliyeva Durdona Ibodullo qizi mактабимизнинг 8 – синф о'кувчisi.

Eliyeva Durdona Ibodullo qizi o'zining iqtidori, fanlarga qiziqishi, ahloqi bilan ajralib turadi. Durdona amaliy mehnatni sevadi. Adabiyotga qiziqishi katta. Eliyeva Durdona o'z muomala madaniyati bilan tengdoshlari orasida hurmat – e'tibor qozongan. Barcha fanlarga qiziqadi. Ustoz va murabbiylarining topshiriqlarini o'z vaqtida bajarib boradi. Durdona aqlli, faol o'кувчilarimizdan biri bo'lib hisoblanadi. Maktabda o'tkaziladigan turli tadbirlarda qatnashib o'z mahoratini namoyish etadi.

O'ylaymizki, Durdona kelajakda o'z ustida tinimsiz ishlaydi va she'riyat yo'nalishida astoydil harakat qiladi.

Elieva Durdona Ibodullo qizi!

Bugun sen katta ijod yo'lida turibsan. Sening ushbu she'riyat yo'nalishidagi ijodingga, izlanishingga, tinimsiz qilayotgan mehnating debochasiga omad tilayman. Yanada mazmunli, mohiyatli, qalbing to'ridan joy olgan dildagi go'zal she'riyat guldastalari yaratishingni istayman.

Doim xalqimiz e'zozida bo'lib yurgin!

N.JAFAROVA.

Qarshi shahar 5 – umumiy o'rta ma'lum maktabning  
ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

**YAGONAMSAN, JONIM - O'ZBEKISTONIM!**

Bobolarim aytgan o'git dilimda,  
Mehrim-muhabbatim senga ko'nglimda,  
Yashaysan o'zimda, aytgan so'zimda,  
Yagonamsan, jonim - O'zbekistonim!

Onamday mehribon nurjahonimsan,  
Otamday buyugim suyanch tog'imsan,  
Ukalarim kabi ko'rkan bog'imsan,  
Betakrorsan, jonim - O'zbekistonim.

Seni dunyo ichra tanho atayman,  
Baxtli kunlar bilan ming bor qutlayman,  
Bag'ringda bahordek, guldek yashnayman,  
Muqaddassan, jonim - O'zbekistonim.

## **CHIROYISAN MAHALLOT**

Shahrimizni sen ko'rg'i  
Chiroyisan Mahallot.  
Unda yashar ibratli  
Oila, sog'lom avlod.  
Ko'chalari top-toza  
Olmazor-u lolazor,  
Tarifga ojiz so'za  
Barcha tarafi gulzor.  
Baland-baland uylarda  
Baland orzu yashaydi.  
Keksalar bosh to'ylerda  
Duo qilib tinmaydi.  
Mahallamizni ko'rg'i  
To'yxona-yu choyxona  
Qashqadaryo elida  
Mahollotim yagona.  
Mahollotning maktabi  
Bizga bilim beradi.  
Issiq yurtim oftobi  
Charaqlaydi, kuladi.  
Mahallamiz shunaqa  
Faol, ildam jonkuyar.  
Go'zal bo'lib yanada  
Chiroyga chiroy qo'shar.

### **MAHALLAM**

Mehrilar ulg'ayar sening bog'ingda  
Jannatdek bog'laring yashnar qalbingda  
Farzandlar ulg'ayar sening sevgingda  
Mahallot, mahallam mening faxrimsan.  
Mehmondo'st odamlar yashaydi senda.  
Urf - odatlar singib ketgan qon-qonga  
Oqibatli inson o'xshar osmonga  
Mahallot, mahallam mening faxrimsan.  
Mahallam, sen menga onamdek aziz  
Otamdek mehribon, juda yaqin do'st.  
Mahallangiz seving barcha o'g'il-qiz  
Mahallot mahallam mening baxtimsan.

### **O'ZBEKISTONGA**

Yaxshi o'qib yaxshi inson bo'laman,  
Osmonlarda quyosh kabi kulaman,  
Faqat yurtim uchun xizmat qilaman,  
Keragim bo'ladi O'zbekistonga.

Ota-onam meni duo qilarlar,  
Doimo madadkorim bo'lalarlar,  
Shu yurt uchun yashagayman bilarlar,  
Keragim bo'ladi O'zbekistonga.

### **QIZINGIZ**

O'najonim sizga tashakkur  
Qizingizni orzusi bordir.  
Qo'llarida qog'oz va qalam  
Yozganlari u uchun ordir.  
Shamol kabi uchib har tomon  
Vatanimni kuylayman har on.  
Nodiradek bo'lgum ijodkor  
Poyimga gul sochadi jahon.  
Osmonlarda oy bo'lib yulduz  
Yurtim faxri bo'larman so'zsiz.  
Onajonim duolar qiling  
Zo'r shoira bo'lar qizingiz.

### **ALVIDO DUNYO, DEMAYMAN**

Mayli sinasin sinovlar,  
Yurakni yoqsin olovlar,  
Hech qachon yengilmayman,  
Alvido dunyo demayman.

Oyog'imga kirsin tikon,  
Bor yukini ortsin osmon,  
Hech qachon yengilmayman,  
Alvido dunyo demayman.

O'zbegin erka qiziman,  
Istiqlolning yulduziman,  
Mardonha bo'lib yashayman  
Alvido dunyo demayman.

### **ONA QADRI**

Ey ona qadrini bilmagan nodon  
O'ylama gunohim unutilar deb.  
Dunyoga ustunmas hech bitta inson  
Yasha onalarni qadrini bilib.  
Sen onang qalbini og'ritgan kunlar  
Uning umri uchun bo'lmoqda tunlar.  
Ko'zidan yoshlarin daryolar qilding  
Boshingni egadi bir kun afsuslar.  
Oq sutini oqla, unutma burching  
G'ayrating borida ko'rsatgin kuching  
Bu dunyo o'tkinchi, biz ketar mehmon  
Onalar oldida pok bo'lsin qalbing.

**DUO QILING ONAJON**

Siz istagan qiz bo'lay  
Duo qiling jonim onajon  
Ko'kda yulduzlarga cho'milay  
Duo qiling jonim onajon.  
Ozod yurtni ozod qiziman  
Vatanimni ertasi o'zim.  
Orzuyingiz aytgan so'ziman  
Olov to'la bosgan har izim.  
Maqsadimda baxtlar mujassam  
Ko'zlarimda porlaydi quyosh  
Duo qiling, onajon har dam  
Men baxtlarga bo'laman yo'ldosh.

### **ONAJONIM ONASI**

Munisginam mening, mushtiparimsiz,  
Onalar ichida eng dilbarimsiz,  
Bolam deya sochlarimiz taraysiz,  
Doim bizni ko'nglimizga qaraysiz.  
Siz mening farishtam buvijonimsiz,  
Oyimsiz, yulduzim keng osmonimsiz,  
Yo'limizni yoritasiz nur bo'lib,  
Yuring doim sevib hamda sevilib.  
Onajonim onasisiz yolg'izim,  
Sizga atab yozdim dildagi so'zim,  
Buvijon dunyo turguncha turing,  
Barchamizga doimo boshchi bo'ling.

### **TAQDIRIMGA GULLAR TUTAMAN**

Istiqloldan isib yuragim  
Orzularga gullar tutaman  
Shu Vatanga bordir keragim.  
Taqdirimga gullar tutaman.

Ota-onam duosin olib  
Cho'qqlarni ham zabit etaman.  
Ajdodlarga munosib bo'lib  
Taqdirimga gullar tutaman.

Niyatlarim tonglar kabi oq  
Yurt tuprog'in ko'zga sartaman.  
Kelajagimdan-ku ko'nglim to'q  
Taqdirimga gullar tutaman.

### **VATANIM**

Vatanim yengilmas botirlaring bor,  
Alisheru, Temur, Boburlaring bor.  
Tarixing o'qisam faxrda dilim,  
Senga jon berishga qodirlaring bor.

Vatanim osmondek bag'ri kengimsan,  
Sen munis onamsan, shirin singlimsan.  
Orzularim samolarni quchadi,  
Mehru-muhabbatga to'la qalbimsan.

Vatanim joningni jonida o'zim,  
Vatanim sharafu shonida o'zim.  
O'zbekiston mening onajonimsan,  
Bu mening yurakdan aytolgan so'zim!

### **QASHQADARYO**

Senda bobo-momolarim hoklari bor,  
Senda Temur bobom yetgan baxtlari bor,  
Senda bugun kelajakning ahdlari bor,  
Tuprog'ingni o'pay Qashqadaryo elim.  
Senda yashar o'z ahdiga vafodorlar,  
Senda yashar osmonlarcha nomus-orlar,  
Istiqlolni kuylaridan bo'larman mast  
Yurak chalganida avjli kuyin torlar.  
Bu yurt go'zal jannatlarga singil asli,  
Chiroylidir o'tayotgan to'rtta fasli,  
Qashqadaryo mening ona maskanimdir  
Yuragimga yaqin yashar doim qalbi.

### **SHUKUR QILAMAN**

Boshim silagan qo'llar,  
Meni baxt tomon yo'llar,  
Mehrga to'la dillar,  
Bunga shukur qilaman.  
Yaxshilar dil ziyosi,  
Diydor sog'inch shifosi,  
Men yaxshilar gadosi,  
Bunga shukur qilaman.  
Otamdir iftixorim,  
Onamdir nomus-orim,  
Vatanim mening borim,  
Bunga shukur qilaman.

## O'RGINAYIN ONA YURTIM BO'YLARINGDAN

Amir Temur bobomning yurti o'zing,  
Dunyolarga yetar bugun aytgan so'zing,  
Kelajaging bo'lajakman nurli izing,  
O'rgilayin ona yurtim bo'ylaringdan.  
Bizlar seni qanotingmiz oppoq qushim,  
Faqat senga, faqat senga dilda sevgim,  
Sen onamsan va suyanchiq otam bildim,  
O'rgilayin ona yurtim bo'ylaringdan.  
Istiqloling yo'limizga sochadi gul,  
Bu Vatanda baxtga yetar har bitta dil,  
Yaxshilarni yo'lidan yur opa-singil,  
O'rgilayin ona yurtim bo'ylaringdan.

### **QADRIGA YETING ONALARNING**

Umr o'tar, soat, daqqaqadamlar,  
Goho kam, gohida ziyoda g'amlar,  
Qadr nimaligin bilmay odamlar,  
Qadriga yetinglar onajonlarning.  
Kecha bola edik o'stirdi ona,  
Bag'rimizni baxtga to'ldirdi ona,  
Quvonchdan quvnatib kuldiridi ona,  
Qadriga yetinglar onajonlarning.  
Umr o'tar bizni aslo ayamay,  
Bir soniya ko'nglimizga qaramay,  
Yashaylik do'st o'zimizni aldamay,  
Qadriga yetinglar onajonlarni.

### ALPOMISH AVLODLARIMIZ

Buyuklarning izidan borib  
Buyuk Alpomishlar bo'laylik.  
Vatan uchun, yurt uchun yashab  
Ona xalqimizni sevaylik.  
Men ham shu el kelajagiman  
Ishonchini oqlayman albat  
O'zbekistonim yuragiman  
Istiqlolim eng buyuk bir baxt.  
Jannat yurtim boshda ko'tarib  
Dunyolarga aytaman madhin.  
Yovuzlik ko'ksidan itarib  
Quvonchlardan kuylaydi baxtin.

### OTAM, ONAM - JONDAN AZIZLARIM

Beshigim boshida allalar aytib  
Hamisha bedorim bo'lgan onamsiz.  
Yiqilsam qo'lidan tirkakdek tutib  
Boshimni silagan tog'dek otamsiz.  
Hoki poyingizni ko'zimga surtib  
Qalbimni taxtiga o'tqazay sizni.  
Sizlarni jonioimdek jon kabi sevib  
Poyingizga sochay oyu-yulduzni.  
O, menga ertaklar suylagan onam  
Baxtimga doimo bo'lingiz omon.  
Mehrini baxtimga atagan otam  
Yonimda bo'ling siz, doim, har qachon.

### **O'ZBEKISTONIM**

Dunyolar ichida o'zingsan tanho,  
Jannatlarga o'rtoq bog'u-bo'stonim.  
Yuragimdan eshit kelar bir sado,  
Onamdek azizsan O'zbekistonim.

Oppoq tonglaringda oq orzu o'zim  
Yulduzlarga to'la tiniq osmonim.  
Tingla satrlarda marjondek so'zim  
Onamdek azizsan, O'zbekistonim.

Bosgan izlaringga izdosh bo'lib men  
Ko'zimga surtaman olov tuprog'im.  
Vatanim azizsan, mutabarsan chin  
Onamdek azizsan, O'zbekistonim.

### **POSBONLAR**

Alpomishdek she'r kelbatli  
Vatanimni posbonlari.  
Ular sabab hamma baxtli  
Tiniq yurtim osmonlari.

Qo'rqlaydilar xatar havfdan  
Vatan desa jonlar fido.  
Qaytmaydilar sodiq ahddan  
Yurt deb mayli bo'l sin ado.

Amir Temur avlodlari  
Vatan deya yashaydilar.  
Ozod qushning qanotlari  
Yurt ishonchin oqlaydilar.

### **YASHASH BUNCHA GO'ZAL**

Baralla dildagi qo'shiqni aytib  
Yashash zavqini doim tuyaylik.  
Go'zallik haqida ash'orlar bitib  
Barchadan baxtliroq bo'lib yashaylik.  
Insonning orzusi o'xshar bulutga  
Oydin bu hayotni keling, sevaylik  
Parvozim o'xshar go'yo bulutga  
Barchadan baxtliroq bo'lib yashaylik.

### **BUVIJON**

Sizni doim men sog'inaman,  
Goho yig'lab-yig'lab olaman,  
Buvijonim o'ningiz bo'm-bo'sh,  
Sizsiz aytin nima qilaman?

Omonat ekan insonning joni  
Qayerdasiz buvijon, qani  
Erka nabirangiz sog'indi.  
Diydoringiz eslab har kuni.

### **BOBOM( Cho'liyev Eli bobomga)**

Bobo umringizda topdim men hikmat  
Bobo hayotingiz barchaga ibrat.  
Ketsangizda yorug'dunyodan o'tib  
Sizni eslashadi yaxshilar har vaqt.  
Qilgan savobingiz barcha tillarda  
Yashaysiz ming yillar toza dillarda.  
Qabringiz boshida duolar qilib  
Sizni xazrat inson deya atarda.  
Men ham sizdek yaxshi inson bo'laman  
Ketsam ham dunyodan yashab yuraman.  
Sizdek saxovatning yo'lidan borib  
Toza yuraklardan duo olaman.

### **USTOZIMGA**

Har qadamda izlarimda ko'rinasiz,  
Qalbim bemor, tabibi siz bo'lasiz,  
Baxtga eltar har so'zingiz menda ustoz,  
Hali sizga olqish olib beray ustoz.

Sizni dedim-obod bo'ldim, gul bog'lardek,  
Viqorlandim cho'qqisi baland tog'lardek,  
Yuzingizda bo'lmayman ajin dog'lardek,  
Hali sizga olqish olib beray ustoz.

Dil tubingiz nurga to'ldiraman o'zim,  
Iymon degan durga to'ldiraman o'zim,  
Qalbingizni gulga to'ldiraman o'zim,  
Hali sizga olqish olib beray ustoz.

## MUNDARIJA

Yagonamsan jonim O'zbekistonim.....	4
Chiroyisan Mahallot.....	5
Mahallam.....	6
O'zbekistonga.....	7
Qizingiz.....	7
Alvido dunyo demayman.....	8
Ona qadri.....	9
Duo qiling onajon.....	10
Onajonim onasi.....	11
Taqdirimga gullar tutaman.....	12
Vatanim.....	13
Qashqadaryo.....	14
Shukur qilaman.....	15
O'rgilayin ona yurtim bo'ylarindan.....	16
Qadriga yeting onalarni.....	17
Alpomish avlodlarimiz.....	18
Otam, onam jordan azizlarim.....	18
O'zbekistonim.....	19
Posbonlar.....	20
Yashash buncha go'zal.....	20
Buvijon.....	21
Bobom (Cho'liyev Eli bobomga).....	21
Ustozimga.....	22

**ADABIY-BADIY NASHR  
Durdona ELIYEVA**

**ONAMGA O'XSHAYSAN VATAN  
She'rlar**

Muharrir:	Dilorom Ziyatova
Texnik muharrir:	Rohila Yuldasheva
Musahhih:	Sojida Allayarova
Sahifalovchi:	Zafar Maxsatov

Bosishga 30.12.2015 yil ruxsat etildi.

Bichimi 60x84 1/16 "Times New Roman" garniturasi.

Ofset bosma usulida bosildi. Nashr tabog'i 0,48.

Shartli bosma tabog'i 1.4.

Adadi 100 nusxa. 24 bet.

Buyurtma № 125 . Erkin narxda. Shartnoma № 23 01.12.2015.

"Qashqadaryo ko'zgusi OAV" nashriyoti. Nashriyot litsenziyası  
AI № 244.

180018, Qarshi shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 22-uy.  
tel: 223-09-09

"Qarshipoligrafnashr" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
180018, Qarshi shahri, O'zbekiston ovozi gazetasi ko'chasi, 33-uy.